



DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARI FAOLIYATI

Turan International University Gumanitar

Fanlar va pedagogika fakulteti

SMT-22-CU guruh 4-kurs talabasi

Xodjimirzayeva Maxliyoxon Baxtiyor qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining faoliyati, uning boshqaruvdagi o'rni, asosiy vazifalari va mas'uliyati yoritilgan. Rahbarning ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, pedagogik jamoani boshqarish, bolalar uchun xavfsiz va qulay muhit yaratishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, rahbarning huquqlari, professional kompetensiyalari hamda zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, rahbar faoliyati, boshqaruv, pedagogik jamoa, ta'lim sifati, rahbar mas'uliyati

Abstract

This article examines the activities of the head of a state preschool educational institution, highlighting their role in management, key responsibilities, and duties. The importance of effective organization of the educational process, leadership of the teaching staff, and creating a safe and supportive environment for children is analyzed. Special attention is given to the rights of the head, professional competencies, and the application of modern management approaches.

Keywords: state preschool educational institution, head's activity, management, teaching staff, quality of education, leadership responsibility



Yurtimizda ta'lim tizimiga mamlakatni barqaror taraqqiy ettirishning muhim omili sifatida e'tibor qaratilayotgani qisqa fursatdayoq o'z samarasini ko'rsata boshladi. Bu xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Biz XXI asr - intellektual taraqqiyot asri, deb ko'p gapiramiz. Modomiki, shunday ekan, bugungi kunda rahbar nafaqat aniq bir kasb-hunarning egasi, avvalo o'zining faoliyati va insoniyligi bilan xalqning ishonchiga munosib bo'lishi, yuksak intellektual tafakkur sohibi, uzoqni ko'ra oladigan, doimo yangilikka intilib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashaydigan, qat'iyatli shaxs bo'lishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlar mudirasi xalq ta'limini boshqarish bo'limlari tomonidan oliy ma'lumotga va 5 yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega shaxslardan tayinlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda kadrlarni tanlash, joyjoyiga qo'yish, tar-biyalash bo'yicha ishni mehnat jamoasi, maktabgacha ta'lim muassasasi kengashining faol ishtirokida amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umu-miy ta'lim mahoratini va madaniy darajasini muntazam o'stirib borishiga g'amxo'rlik qiladi, xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta'lim muassasasi manfaatlaridan kelib chiqib, ularni tartibli va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turili-shini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqarishda pedagogik xodimlar, ota-onalar va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonini kuzatish hamda barcha uchun zarur va qulay bolgan ruhiy muhitni vujudga keltirish ham muhim o'ringa ega. Buning uchun rahbar maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mavjud munosabatlar, tarbiyalanuvchilarning jismoniy, ijtimoy-hissiy va intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ya'ni tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi-pedagoglar, ota-onalar bilan ta'lim tashkiloti hamda bolalar o'rtasidagi munosabatlardan yaxshi xabardor bo'lishi o'z kasbining yetuk mutahasisi bo'lishi kerak.



“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasining, 16.12.2019 yildagi O‘RQ-595-son Qonunida Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari (direktori)lari to’g’risida quyidagilar berilgan:

- ✚ Direktor davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining faoliyatiga joriy rahbarlikni amalga oshirish;
- ✚ Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining huquq va majburiyatlari;
- ✚ normativ-huquqiy hujjatlar;
- ✚ davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining ustavi;
- ✚ mehnat shartnomasi tushish.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari bu **mudira** (direktor) bo‘lib, u tashkilotning umumiy faoliyatini tashkil etadi, pedagogik jarayonni boshqaradi, xodimlarni nazorat qiladi va bolalarni maktabga tayyorlashga mas’ul, ko‘p qirrali rahbar va tashkilotchi hisoblanadi.

Rahbarning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ✚ Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘laqonli tarbiyalash va rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlash;
- ✚ davlat ta’lim standartlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;
- ✚ pedagogik jamoa faoliyatini boshqarish va metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- ✚ bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish;
- ✚ ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- ✚ moddiy-texnik bazani mustahkamlash va undan samarali foydalanish.

Raxbar rolining qirralari: Tashkilotchi, pedagog, rahbar, iqtisodiy masalalar bo‘yicha boshqaruvchi.



Rahbarning ma'suliyati: Maktabgacha ta'lim tizimining birinchi bosqichi sifatida jamiyatning muhim ijtimoiy vazifasini bajaradi.

Qonuniy asos: Uning faoliyati "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi Nizom" va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Mudira maktabgacha ta'lim tashkilotlarning tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli hal etishga qaratilgan. U bolalar muassasalaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablar muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. o'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi.

Mudira o'z ishida davlatimiz va xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik, prinsiplilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik, mudiraga qo'yiladigan asosiy talablardir. Jamoadagi o'zaro to'g'ri munosabatlar, har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilishini nazorat qiladi. Rahbarlik mavqeyi mudirani o'z g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy-huquqiy saviyasini va mutaxassislik mahoratini doimo ongli ravishda oshirishga, pedagogik bilimlarni, bolalarga ta'lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashiga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim oldida turgan vazifalarni bilishga, o'z bilimlaridan faoliyatida foydalanishga majbur etadi. U dastur, metodik, instruktiv me'yoriy hujjatlarni puxta bilishi va amal qilishi kerak. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilishi, kamchiliklarni darhol bartaraf qilish choralarini ko'rishi lozim.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda kadrlar rezervini shakllantirib, ular bilan doimiy ish olib boradi. Mudira bolalar bog'chasining butun faoliyatiga, bolalar bog'chasini obodonlashtirish, ko'kalam-zorlashtirish ishlariga rahbarlik qiladi.

Smeta bo'yicha xarajatlarni to'g'ri taqsimlash, muassasani oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tartibini to'g'ri tashkil etish, bog'chani rejadagi bolalar bilan to'ldirish, ta'lim-tarbiya dasturining bajarilishi uchun javobgar, yozgi sog'lomlashtirish ishlari, pedagogik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning bilimi, ishga nisbatan munosabati, ularning mala-kasini oshirish ishlari bo'yicha bosh rahbardir.

Xulosa

Mudira bolalar hayotini saqlash, muhofaza qilish uchun bolalar muassasasida to'g'ri kun tartibi, shart-sharoit yaratadi. Sanitariya va gigiyena qoidalarining bajarilishini nazorat qiladi, yong'inga qarshi tadbirlaro'tkazadi. Qishga vitamanga boy oziq-ovqat mahsulotlarini g'amlaydi. Bog'cha xodimlarinio'z vaqtida oylik maosh bilan ta'minlaydi. Ish yuritishni qattiq riazorat qiladi. Faol xodimlarni rag'batlantiradi. Bolalar bog'chasidao'tkaziladigan joriy va kapital ta'mirga bosh rahbardir. Xo'jalik mudiri, ombor mudiri, kir yuvuvchi, bog'bon, duradgor, farrosh, qorovul, elektrik, santexnik, haydovchi bilan yakkama-yakka suhbat o'tkazadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim mahoratini, umumiy ta'lim va madaniy darajasini muntazam o'stirib borishga g'amxo'rlik qilashi, xodimlar malakasini hisobga olgan holda va maktabgacha ta'lim muassasasi manfaatlaridan kelib chiqib, ularni tartibli va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turilishini ta'minlashi xodimlar malakasini oshirishga bevosita maktabgacha ta'lim muassasasida shart-sharoit yaratishi, murabbiylik harakatini rivojlantirishi, mamlakatda va chet ellarda pedagogik va boshqa fanlar erishgan yutuqlar haqida axborot berib borishi lozim.



Maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruvni samarali olib borishda, ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda yuqorida keltirilgan funksiyalarini tizimli va to'g'ri amalga oshirish nafaqat ishtirokchilarning ish samaradorligini oshirishni ta'minlaydi, balki maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limni sifatli tashkil etish va rivojlantirishga ham hissa qo'shadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbaridan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalar talab etiladi. Bular jumlasiga strategik fikrlash, innovatsion yondashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, jamoa bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalari kiradi. Zamonaviy rahbar doimiy ravishda o'z ustida ishlashi va malakasini oshirib borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni.
2. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi (o'quv-metodik qo'llanma). - T.: "Fan va texnologiya", 2008 y
3. Kun.uz, kitobxon.uz